

Lingvokulturologiyaning Nazariy Asoslari Xususida Mulohazalar

Dildora Xudayberganova¹

Annotatsiya: Ushbu maqolada lingvokulturologiya xususida mulohazalar berilgan. Lingvokulturologiyaning tilshunoslikdagi ahamiyatiga doir tadqiqotlar xususida so‘z yuritilgan. Til va madaniyatning bevosita bog‘liqligi o‘rganilgan. Jahon va o‘zbek tilshunoslari tomonidan ushbu soha bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar tahlilga tortildi. “Lingvokulturologiya” atamasining turli manbalarda turlicha nomlanishiga e’tibor qaratildi.

Kalit so‘zlar: til, madaniyat, konseptual qonun-qoidalar, sotsiolingvistika, etnolingvistika, psixolingvistika, lingvomamlakatshunoslik, madaniyatshunoslik.

Bugungi kunda, umuman, davlatimiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan buyon davlat tiliga e’tibor xalqqa, millatga e’tibor sifatida qaralib kelingan. Bu borada Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev quyidagi fikrlarni ilgari surganlar: “Barchamizga yaxshi ayonki, ona tili – millat ma’naviyatining mustahkam poydevordir. Ulug‘ ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy ta’kidlaganidek, har bir millatning dunyoda borligini ko‘rsatadigan oyinai hayoti – bu uning milliy tili va adabiyotidir. Shu ma’noda dunyo hamjamiyatidan munosib o‘rin egallashni maqsad qilib qo‘yan har qaysi davlat, avvalo, o‘z xalqining milliy tili va madaniyatini asrab-avaylashga, rivojlantirishga intiladi”[7]

Darhaqiqat, til har jihatdan yuksalib borgani sari uning tarmoqlari ham, yo‘nalishlari ham ko‘paymoqda, taraqqiy topmoqda. Bunday sohalardan biri bu – lingvokulturologiyadir. Til va madaniyatni o‘zida mujassam etgan bu tushuncha tilshunoslikning bugungi kunda rivojlangan tarmoqlaridan bo‘lib, ko‘pchilik tadqiqotchilar tomonidan tahlilga tortilgan, o‘rganilgan. Biz ushbu maqolamizda lingvokulturologiyaning o‘rganilishi, uning til bilan madaniyat orasidagi “ko‘prikligi”ning sababini o‘rganishga harakat qildik. Avvalo, “lingvokulturologiya” atamasiga to‘xtalib o‘tsak:

Matn tahlilida katta ahamiyatga ega bo‘lgan lingvokulturologiya turli manbalarda turlicha izohlanadi. Xusan, professor D.Ashurov fikricha, lingvokulturologiya – madaniyat va tilning qo‘llanish jarayoni maqomidagi o‘zaro ta’sirlashuvlarni o‘rganuvchi fandir. Lingvokulturologik tadqiqotlar sotsiolingvistika, etnolingvistika, psixolingvistika, lingvomamlakatshunoslik, madaniyatshunoslik va boshqa shunga yaqin sohalararo miqyosda olib boriladi. Lingvokulturologiyaning eng muhim vazifalaridan biri – metodologik shart-sharoitlarni aniqlashtirish, tadqiqotlarning konseptual qonun-qoidalari hamda madaniyat nuqtayi nazaridan ajratib olingen til birliklarini (lingvokulturemalar) tizimiga solish va tasniflash muammolarini ishlab chiqish hisoblanadi.[1]

Konseptual qonun-qoidalarga asoslanib tilni madaniyat jihatidan tadqiq etish til birliklarining qay darajada ahamiyatga ega ekanligini ochib berishda katta ahamiyatga ega. Bu esa lingvokulturologik tadqiqotlarga yaqin bo‘lgan sohalarning ham rivojlanishiga, fanda bu sohalarning jiddiy o‘rganilishiga olib keladi.

B.N.Teliya[2] esa lingvokulturologiyani quyidagicha tadqiq qiladi: Lingvokulturologiya bu tilshunoslik, madaniyatshunoslik, tilda milliy madaniyat aks etishi va mustahkam o‘rnashib olishini tadqiq etuvchi sohalar to‘qnashgan o‘rinda paydo bo‘lgan tilshunoslik tarmog‘idir. Bu fan etnolingvistika, sotsiolingvistika bilan shu qadar chambarchas bog‘langanki, uni etnolingvistikating bir ko‘rinishi deb hisoblaydi. Biroq ular prinsipial jihatdan umuman boshqa fanlardir. Etnolingvistika

¹ Department of Computer Linguistics and Applied Linguistics, Faculty of Uzbek Philology, Uzbekistan National University, Tashkent, Uzbekistan



tarmog‘iga to‘xtalganda, eslab o‘tish joizki, uning ildizlari Yevropada V.Gumboldtga, Amerika tilshunosligida esa F.Boas, E.Sepir, B.Uorfga borib taqaladi. Rossiyada esa D.K.Zelenin, E.F.Karskoy, A.A.Shahmatov, A.A.Potebnya, A.N.Afanasyev, A.I.Sobolevskoylar tadqiqotlarida alohida mavqega ega bo‘ldi.

Ma’lumki, ushbu soha XX asrning 90-yillarida tilshunoslik bilan madaniyatshunoslik orasida yangi fan sohasi, lingvokulturologiya (lingvomadani-yatshunoslik) paydo bo‘ldi. U tilshunoslikning mustaqil yo‘nalishi sifatida tan olindi. Bu fan yuzasidan shakllangan tadqiqotlar V.Gumboldtga borib taqalishi barchamizga ma’lum. Lingvokulturologiya sohasiga XIX asrda V.Fon Gumboldt o‘zining “Tilning tuzilishi va insoniyat ma’naviy rivojiga ta’siri” kitobi bilan tamal toshini qo‘ygan bo‘lib, til va millat xususiyatlarining munosabatlari haqida qayd etgan edi. Ayniqsa, uning “turli tillar, o‘z xususiyatlari, fikrlash va his-tuyg‘u ta’siriga ko‘ra amalda turlicha dunyoqarashni ifodalaydi”, “tilning o‘ziga xos xususiyatlari millatning o‘zligiga ta’sir qiladi, shuning uchun tilni chuqur o‘rganish tarix va falsafa insonning ichki dunyosi bilan bog‘lab tushuntiradigan barcha narsani qamrab olishi kerak” kabi fikrlari keng tarqalgan.

Xalqlar o‘rtasida ijtimoiy-iqtisodiy, madaniyatlararo munosabatlarni shakllantirish asnosida boshqa tillarga murojaat etish va o‘rganish kuchaymoqda. Boshqa tillarni o‘rganish esa o‘scha xalqning madaniyatini o‘rganish, ya’ni his qilish imkonini beradi. Shu ma’noda oxirgi paytlarda tilning madaniyat bilan o‘zaro munosabatini o‘rganish favqulodda dolzarb masalaga aylandi. Shu asnoda tilshunoslikda lingvokulturologiya deb ataluvchi maxsus yo‘nalish, tadqiq obyekti paydo bo‘ldi. Nemis tilshunosi V. fon Gumboldt til va madaniyat munosabatlarini ilk bor o‘z asarlarida ifoda etdi: “Inson tili unga predmet haqidagi ma’lumotni qay tarzda yetkazsa, shu bilan yashaydi. Har qanday til shaxs mansub bo‘lgan xalqni, uning tarzini ifoda etadi”[3].

V.A.Maslova ularni o‘rganuvchi fan tilshunoslik va madaniyatning kesishishida paydo bo‘lganini va u “Lingvokulturologiya” deb atalishini, bu fan millat madaniyatini tilda aks ettirish va mustahkamlash masalasini o‘rganishini qayd etib, uning asosiy yo‘nalishlarini belgilab ko‘rsatgan, tasnifini amalga oshirgan. Lingvokulturologiya asosini shaxs tili tushunchasi va kontsept tashkil etadi. Darhaqiqat, lingvokulturologiyaning asosiy o‘rganish predmeti bo‘lgan lingvokulturemalar “konsept sifatida ontologik jihatdan yuksak umumlashtiruvchilik va tilning turli sathlari, vositalari orqali ifodalanish imkoniyatlariga ega bo‘lgan, har bir tilda o‘ziga xos semantik maydonni vujudga keltiradigan keng qamrovli tushunchadir”[4].

V.A.Maslova tadqiqotlariga ko‘ra lingvomadaniyat rivojini 3 bosqichga ajratiladi:

- 1) Fan shakllanishiga turtki bo‘lgan dastlabki tadqiqotlarning yaratilishi (V. Fon Gumboldt, E.Benvnist, L.Vaysgerber, A.A.Potebnya, E.Sepir) kabi tilshunoslarning ishlari);
- 2) Lingvokulturologiyaning alohida soha sifatida ajratilishi;
- 3) Lingvokulturologiyaning rivojlanish bosqichi.

Ilgari surilgan ta’riflardan so‘ng E.I.Zinovyeva va E.E.Yurkovning[5] hisoblashicha, “lingvokulturologiya – bu lingvistik filologik fan bo‘lib, turli darajadagi til birliklari, nutq faoliyati, nutqning harakati, diskursni o‘rganish orqali ma’lum bir til tashuvchilarini tomonidan dunyo haqidagi bilimlarni taqdim etishning turli usullarini o‘rganadi. Bu esa, tahlil qilinadigan birlıklarning ma’nosini, uning xususiyatlarini, sohiblarining ongida aks etgan konnotatsiya va assosiatsiyalarni to‘liq ifodalaydigan obyektlarning tavsifini berishga imkon beradi. Bunda lingvokulturologiyaning muammolaridan biri bo‘lgan tanlov tamoyollarini ishlab chiqish, tilning ma’nosini bilan bog‘liq bo‘lgan ensiklopedik xarakterning ma’lumotlarini hisobga olish muhimdir”.

XXI asr boshiga kelib lingvokulturologiya dunyo tilshunosligidagi yetakchi yo‘nalishlardan biriga aylanib ulgurdi. Lingvokulturologiya tilni madaniy fenomeni sifatida o‘rganuvchi fan bo‘lib, o‘zaro aloqadorlikda bo‘lgan til va madaniyat uning predmetini tashkil etadi. Jumladan, V.N.Teliya bu haqida shunday yozadi: “Lingvokulturologiya inson omiliga, aniqrog‘i insondagi madaniy omilni tadqiq etuvchi fandir. Bu esa shuni bildiradiki, lingvokulturologiya markazi madaniyat fenomeni bo‘lgan inson to‘g‘risidagi antropologik paradigmaga xos bo‘lgan yutuqlar majmuasidir”[2]



Lingvokulturologiya borasida tadqiqotlar XX asrda jahon tilshunosligida eng ko‘p o‘rganilgan tadqiqot obyektlaridan biri bo‘ldi. Jumladan, G.B.Palmer, G.Morain, B.Serdixun, B.Sivasish, V.V.Vorobev, Y.O.Oparina, I.G.Olshanskiy, A.Vejbitskaya, S.G.Vorkachev, V.I.Karasik, V.Krasnykh, K.E.Nagaeva, V.A.Maslova, O.E.Salnikova, O.I.Vasilenko, O.A.Podlesova, D.D.Lagayeva, N.N.Dzida, Y.B.Eliseeva, T.I.Gustomyasova, F.X.Xasanova, F.G.Fatkullina, A.R.Gabbasova kabi bir qator olim va olimalar tomonidan o‘rganilgan.

O‘zbek tilshunoslik ilmida ham bu yo‘nalishda bir qator foydali ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, lingvomadaniyatning ilmiy asoslanishi, til orqali madaniyatning qay darajada ifodalanishi va shunga o‘xhash bir qator masalalar yuzasidan tadqiqotlar olib borilgan. Bu ishlarning dastlabkilari sifatida quyidagi lingvokulturologik tadqiqotlarni aytishimiz mumkin:

1. A.Nurmonov – “O‘zbek tilida lingvokulturologik yo‘nalish”;
2. N.Mahmudov – “O‘xshatishlar – obrazli tafakkur maxsuli”;
3. N.Sayidrahimov – “Lingvokulturologiyaning ilmiy asoslanishiga doir ayrim mulohazalar”, “Lingvokulturologiyaning komponentlari”;
4. D.Xudoyberganova – “Matnning antroposentrik tadqiqi” mavzusidagi monografiyasi, “O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati”;
5. D.Kamolova – “Lingvokulturologiya – yangi tarmoq”.

G.Boqiyeva, D.Ashurova, A.M.Bushuy, Sh.Safarov, G.Sh.Ataxanova, A.Mamatov, O‘.Yusupov, J.Yoqubov, A.Ziyaev, D.Djumanova, N.Djusupov, S.Isamuhammedova, D.Tosheva, N.A.Tuxtaxodjayevalarning ba’zi tadqiqotlarida ham lingvokulturologiya xususida mulohazalar bor.

Lingvokulturologiya jonli, milliy tilda ifodalangan birlklarni o‘rganishi bilan boshqa fan tarmoqlaridan ajraladi. Bugun biz lingvokulturologiya elementlarini ko‘plab segmentlarda uchratishimiz mumkin. Maqol, matal, iboralar ham shular jumlasidandir.

Bugungi kunda lingvomadaniyatning taraqqiy etishi tilning jadal rivoji bilan bog‘liq. Til rivojlanib borar ekan, tilshunoslikning eng murakkab tarmoqlari va yo‘nalishlari ham rivojlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. D.Ashurov. Lingvokulturalogik tadqiqotlar. O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar. 2021.
2. В.Н.Телия. Язык, сознание, коммуникация: Сб. статей / Редкол. М. Л. Ковшова и др. – М.: МАКСПресс, 2013.
3. Ивченко М.В. Функционально-семантические и лингвокультурологические особенности вербализованного концепта “волшебство” в сказачном и рекламном дискурсах: Автореф. канд. дисс. филол. наук. – Ростов-на-Дону, 2010.
4. Воробьев.В.В. Лингвокультурологическая парадигма личности. – М.:Рос. Ун-т. Дружбы народов, 1996. – 170 с
5. Маслова В.А. “Лингвокультурология” М.: Изд-во “Юрайт”, 1997. – 255 с
6. <https://www.gazeta.uz/oz/2019/10/22/uzbek-language>
7. Aripov, M., Sharipbay, A., Abdurakhmonova, N., Razakhova B.: Ontology of grammar rules as example of noun of Uzbek and Kazakh languages. In: Abstract of the VI International Conference “Modern Problems of Applied Mathematics and Information Technology - Al-Khorezmiy 2018”, pp. 37–38, Tashkent, Uzbekistan (2018)
8. Abduraxmonova, N. Z. "Linguistic support of the program for translating English texts into Uzbek (on the example of simple sentences): Doctor of Philosophy (PhD) il dis. aftoref." (2018).
9. Abdurakhmonova N. The bases of automatic morphological analysis for machine translation. Izvestiya Kyrgyzskogo gosudarstvennogo tekhnicheskogo universiteta. 2016;2 (38):12-7.



10. Abdurakhmonova N, Tulihev U. Morphological analysis by finite state transducer for Uzbek-English machine translation/Foreign Philology: Language. Literature, Education. 2018(3):68.
11. Abdurakhmonova N, Urdishev K. Corpus based teaching Uzbek as a foreign language. Journal of Foreign Language Teaching and Applied Linguistics (J-FLTAL). 2019;6(1-2019):131-7.
12. Abdurakhmonov N. Modeling Analytic Forms of Verb in Uzbek as Stage of Morphological Analysis in Machine Translation. Journal of Social Sciences and Humanities Research. 2017;5(03):89-100.
13. Kubedinova L, Khusainov A., Suleymanov D., Gilmullin R., Abdurakhmonova N. First Results of the TurkLang-7 Project: Creating Russian-Turkic Parallel Corpora and MT Systems. Proceedings of the Computational Models in Language and Speech Workshop (CMLS 2020) co-located with 16th International Conference on Computational and Cognitive Linguistics (TEL 2020) .2020/11: 90-101
14. Abdurakhmonova N. Dependency parsing based on Uzbek Corpus. In Proceedings of the International Conference on Language Technologies for All (LT4All) 2019.

